

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISH VA KORRUPSIYANI BARTARAF ETISH BO'YICHA KOMPLAENS NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abdukaxarov E'zoz Tulkunovich

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi
Soliq qo'mitasi davlat soliq bosh inspektori, TDIU magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, korrupsiya, nazorat, iqtisodiyot, pul, yashirin aylanma tovarlar.

Аннотация: в данной статье даны мнения об эффективности проводимой в Узбекистане работы по борьбе с теневой экономикой и ликвидации коррупции.

Ключевые слова: теневая экономика, коррупция, контроль, экономика, деньги, теневые оборотные товары.

Abstract: this article provides ideas on the effectiveness of the work being done to combat the underground economy and eliminate corruption in Uzbekistan.

Key words: hidden economy, corruption, control, economy, money, hidden circulating goods.

KIRISH

Mamlakatda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtaida o'tkazilayotgan so'rovlardagi yashirin aylanmaning, ayniqsa, savdo va umumiyligi ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalarda yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi, bu esa vijdonli tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazmoqda, ular uchun teng bo'limgan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. "Bir narsani aniq tushunishimiz zarur. Yashirin iqtisodiyot, avvalambor, to'g'ri ishlayotgan tadbirkorlar faoliyatiga katta to'siq

bo‘lyapti. Bugungi kunda intizomli tadbirkorlar: „Qani adolatli raqobat?“, degan haqli e’tirozini bildiryapti”, — deb fikr bildirgan edi Shavkat Mirziyoyev.[4]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘sislarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoxda hamda “Korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta’sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institatlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug‘ilmoqda.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligi ham fikrimizga bir misoldir. Ushbu agentlik:

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institatlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minalash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi;

o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdar shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir;[2]

ASOSIY QISM

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash, iste’mol jarayonlari — iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi

manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud.

Yashirin iqtisodiy ayylanma, ya’ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo‘lganidan uning aniq hisob-kitobi bo‘lmaydi. Buning o‘rniga uni taxminan baholash usuli qo‘llaniladi. Ayrim hisobkitoblarga ko‘ra, o‘tgan asr oxirlarida Yer yuzidagi yashirin iqtisodiy ayylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo‘lgan. Biroq yashirin iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. Masalan, 1999-yil Misr va Nigeriyada u yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo‘ldi. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo‘lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1—2%), G‘arbiy Yevropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida Yashirin iqtisodiyot darajasi o‘rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan, AQSH va Italiyada Yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishlicha 6,4 va 11,4% ni tashkil etdi (1997).

XX asrga kelib iqtisodiyotining globallashuvi oqibatida Yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib xalqaro darajaga ko‘tarildi. Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi Yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko‘chirilishida, nojo‘ya biznes ishlari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g‘ayri qonuniy yo‘llar bilan topilgan pulni "halollab" olish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tugdiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib "halollab" olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot — Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan (36 mamlakat a’zo; 2000).

Vazirlar Mahkamasining 20.06.2020 yildagi 394-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi.

1. Xufiyona aylanmani qisqartirishga qaratilgan boshqaruvida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish.

DSQ va uning hududiy bo‘linmalari tuzilmasida (tasdiqlangan shtat birliklari doirasida) jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish, elektron savdoni soliqqa tortish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va xalqaro integratsiya bo‘limlari tashkil etiladi. DSQga QQSni hisobga olish va qaytarish tizimini takomillashtirish vazifasi topshirildi.

Davlat statistika qo‘mitasi tarkibida (tasdiqlangan shtat birliklari doirasida) yashirin iqtisodiyotni, yashirin ishsizlikni baholash va hisobga olish bo‘limlarini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

2. Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va markirovkalash.

Mazkur yo‘nalishda tadbirkorlik sub’yektlari onlayn-NKM bilan qamrab olinadi, markirovkalanadigan tovarlar ro‘yxati bosqichma-bosqich kengaytiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning noqonuniy faoliyatini qisqartirish mexanizmlarini, shuningdek elektron tijorat sohasida faoliyat yuritadigan sub’yektlarni aniqlash va soliqqa tortish mexanizmini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

«Case management system» asosida soliq tekshiruvlari samaradorligi va sifatini nazorat qilish tizimi tashkil etiladi.

3. Iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish.

MBga «Humo» va «UzCard» to‘lov tizimlarini integratsiyalash vazifasi topshirildi. QR-kodidan foydalangan holda amalga oshiriladigan to‘lovlar soni oshiriladi, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning V2V to‘lovları uzlusiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimiga o‘tkaziladi.

Ko‘chmas mulk va transport vositalari bo‘yicha bitimlarni rasmiylashtirishda zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish nazarda tutilgan.[5]

XULOSA

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning natijadorligini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma’lumotlar ko‘lamini yanada kengaytirish, ulardan to‘sqliarsiz foydalanishni ta’minalash, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuraturaning korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha quyidagi tizimni joriy etish haqidagi taklifi ma’qullangan edi:

har chorakda Agentlik davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qiladi va ushbu jinoyatlar ko‘rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar belgilash uchun Agentlik xodimlari ishtirokida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritib boradi;

har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergen omillarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar Milliy kengash yig‘ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib boriladi.[3]

Korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda asosiy kuch biznes va jamoatchilikdir. Shu bois jamiyatda bu illatlarga nisbatan nafrat tuyg‘usini shakllantirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning salbiy oqibatlarini yoritib borish muhimligi qayd etildi.

2019 yilda O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagagi ulushi 52,11 foizni tashkil etdi. Markaziy Osiyo davlatlarida ushbu ko‘rsatkich pastroq — Tojikistonda 40,76 foiz, Qozog‘istonda 36,65 foiz va Qirg‘izistonda 30,53 foizga yetgan. Bu haqda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi axborot xizmati xabar bermoqda.

Yashirin iqtisodiyotning ulushi jahon mamlakatlari, jumladan, AQShda 8,0%, Braziliyada 36,5%, Ispaniyada 21,7%, Italiyada 19,5%, Portugaliyada 18,5%, Koreyada 18,4%, Xitoyda 14,5%, Kanadada 11,0%, Germaniyada 10,2%, Buyuk Britaniyada 9,6%, Avstraliyada 9,0%, Singapurda 8,6% va Yaponiyada 8,1%ni tashkil qildi. Ma’lumotlar MIMIC modeli asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Juhon banki ekspertlarining ma’lumotlari bo‘yicha dastlabki o‘rganish natijasi hisoblanadi. Ma’lumot uchun, prezident raisligida 2020 yil 27 iyul kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda yashirin iqtisodiyotga yo‘l qo‘ymaydigan tizim joriy etilishi aytilgandi. «Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tadbirkorlarni jazolash, ularning faoliyatiga to‘sinqlik qilish degani emas», — degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Xufyona iqtisodiyotga dualizm xos bo‘lib, bu uning ikkiyoqlama rolidan, ya’ni: pozitiv (ijobiyl) – biznes rivojlanishi bo‘yicha salbiy sharoitlarni yumshatish; negativ (salbiy) – jamiyat daromadlarining qayta taqsimlanishidagi salbiy oqibatlarning vujudga kelishi va aholi turmush darajasining yomonlashuvi, iqtisodiyotni boshqarish tizimi samaradorligining pasayishining yuz berishida namoyon bo‘ladi. Shunga muvofiq ravishda xufyona iqtisodiyotga uch guruh o‘zaro bog‘langan funksiyalar xosdir. Xufyona iqtisodiy faoliyat oqibatlarini bir xil baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Xufyona iqtisodiyotning ko‘pgina turlari (ayniqsa “kul rang”) rasmiy iqtisodiyotni rivojlanishiga to‘sqlik qilmasdan, balki unga ko‘maklashadi ham. Shveysariyalik iqtisodchi Diter Kassel bozor xo‘jaligida xufyona iqtisodiyot rivojlanishining uchta ijobiyl funksiyalarini ajratib ko‘rsatgan:

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6098-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 29.06.2020 yildagi PF-6013-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati

ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 27.11.2023 yildagi PF-200-son.

4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/17/shadow-economy/>
5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/yashirin_iqtisodietga_qarshi_qanday_kurashish_kerak.
6. Абулқосимов Ҳ.П. Фирибгарлик-тадбиркорлик иқтисодий хавфсизлигига таҳдид.// Ж.Иқтисод ва молия//Экономика и финансы, 2017 йил, 3-сон..